

Yondosh mavzu:
Ish va ish haqi

Sonli nur, shkala,
bo'linish,
hisob boshi nuqtasi



1. Sinfdoshingiz bilan o'ynang. Ham 5 ga, ham 9 ga bo'linadigan barcha sonlarni kim tezroq topa oladi?

345 780

301 205

129 006

160 840

12 375

927 270

157 635

244 590

64 270

600 330

906 960


720 081



2. Dastgoh soatiga 26 m² gazlama ishlab chiqaradi. Sonli nur yordamida quyidagilarni aniqlang:
- a) 26 m² gazlama tayyorlash uchun necha soat kerak bo'ladi? 78 m², 130 m², 182 m² gazlama tayyorlash uchun-chi?
- b) 2, 4, 14 soatlik ish vaqtida qancha gazlama ishlab chiqariladi?




Koordinata nuri – hisob boshi, hisob yo'nalishi va birlik kesma berilgan nur.



28. Koordinata nuri




3. Ushbu chizmalarda koordinata nurlari noto'g'ri yasalganligini isbotlang. Xatolarni tuzatishga yordam bering.



4. Birlik kesma sifatida 2 ta katakchani olib, daftaringizga koordinata nurini chizing. Sonli nurda $S(4)$, $Z(12)$, $U(1)$, $T(48:6)$, $O(81 - 72)$ nuqtalarni belgilang. Qanday so'z hosil bo'ldi?



5. Ushbu holatlarning har birida bo'linishlar qiymati qanday?



Birlik kesma – koordinata nurida masofalar o'lchanadigan o'lchov. Ushbu holatlarning har birida birlik kesmaning uzunligi qancha bo'ladi?



6. Yuk mashinasida bir qatnashda 7 200 kg yuk, yengil avtomobilda esa 2 300 kg yuk tashish mumkin. Bir oyda yuk mashinasi haydovchisi 167 marta, yengil avtomobil haydovchisi esa 216 marta qatnovni amalga oshirgan. Kim ko'p va qancha ko'p yuk tashigan?



7. Massalarni kilogrammda ifodalang.

7 t

23 q

400 000 g

12 t 7 q

5 q 63 kg

6 t 43 kg

137 t – 650 kg

19 q + 930 kg

280 kg + 67 000 g



8. Noma'lumni x harfi bilan belgilang va har bir masalaga tenglama tuzing. Bu tenglamalarda qanday umumiylik bor?

a) Velosipedchi 2 kunda 504 km yo'l bosib o'tdi. Agar u kuniga bir xil masofani bosib o'tgan bo'lsa, u bir kunda necha metr yo'l yurgan?

b) Dastgoh 2 soatda 504 m gazlama ishlab chiqardi. U soatiga necha metr gazlama ishlab chiqargan? Dastgohning mehnat unumdorligi qanday?

d) Ikki qutida 504 ta mix bor. Agar mixlar qutilarga bir xil miqdorda joylangan bo'lsa, bitta qutida nechta mix bor? Qutining sig'imi qancha?

Hosil bo'lgan tenglamalardan birini yeching.



9. Amallarning to'g'ri tartibini ko'rsatib hisoblang. Bu yerda qaysi so'z yashiringan? Bu ish bilan qanday bog'liq?

$$652 \ 652 : ((403 \cdot 36 - 182 \cdot 45) : 9 - 691) : 4 - 13 \ 223$$

T 1 610

L 59 332

M 14 508

O 14 833

S 702

H 6 318

A 8 190

U 11



10. Zavod ustalari va ularning shogirdlari samarali mehnatlari uchun yorliqlar bilan taqdirlandilar. Yorliq olgan ustalar soni uni olmagan shogirdlar soniga teng bo'lib chiqdi. Zavodda kim ko'proq: yorliq olganlarmi yoki olmaganlarmi?



11. Birlik kesma sifatida 3 ta katakchani olib, daftaringizga koordinata nurini chizing. Koordinata nurida $A (718 - 15 \cdot 18 - 439)$, $B (922 + 89 - 28 \cdot 36)$ nuqtalarini belgilang.



12. Bitta detalga ishlov bergani uchun usta 17 800 so'm, shogirdi esa undan 4 900 so'm kam oladi. Bir oyda usta 270 ta, shogirdi esa 3 marta kam detal tayyorladi. Shogird ustadan necha so'm kam haq olgan?